



BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 150 (1211), 2024-yil 27-iyul, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



Xalq va armiya — bir tan-u bir jon!

VATAN — MUQADDAS, UNI HIMOYA QILISH SHARAFLI BURCHDIR!



Uch oltin qoida

Bir mahallar Vatan himoyachisining yuqori jangovar va jismoniy tayyorgarligi uning boshqalardan ko'ra kuchliroq, qudratliroq

bo'lishini ta'minlagani rost. Ammo shaxsiy kuzatuvlarim va xizmat faoliyatimda duch kelayotgan ko'plab hayotiy misollardan kelib chiqib aytayotganim, bugungi davr yurt posbonlari oldiga yangicha talablar qo'yimoqda.

Yuksak ma'naviyatli, zamon bilan vobasta fikr yuritadigan, keng dunyoqarash sohibi bo'lgan harbiy qo'shinlarga bilagidagi kuchni, ixtiyoriyidagi jangovar texnika va qurolini boshqalarga qaraganda samarali qo'llay oloyapti.

Chunki bugungi zamonaviy dunyoda eng avval insoniyatning ongu tafakkuriga qaratilgan urush ochildayotgani fikrimizni quvvatlaydi.

Shuning uchun ham muqaddas Vatanni himoya qilish sharaflı burch ekani, birinchi navbatda, yoshlarning qalbu shuuriga singdirilmoqda. Boisi, globalashuv va manfaatlar to'qnashuvi yaqqol namoyon bo'layotgan bir davrda ajdodlarimiz qoldirgan muqaddas meros yosh avlodga namuna sifatida Vatanning sadoqatli himoyachisi, xalqning munosib farzandi bo'lib yetishishida muhim rol o'ynamoqda. Mana shunday ulkan ma'naviy boylik, mustaqillik uchun mardonavor bosib o'tilgan shonli yo'l va saboqlar bugungi O'zbekistonning rivojlanish yo'li va buyuk o'zbek xalqi qurayotgan qudratli mamlakatning asosini tashkil etmoqda.

Dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan jasur sarkarda, markazlashgan buyuk saltanat asoschisi, bobokalonimiz Amir Temur aytadiki, "Davlat ishlarini yuritishda hamisha ilm-fan bilan bir qatorda harbiy tizimga o'zgacha e'tibor qaratdim. Cheriikka (qo'shin, harbiy tuzilma) navkar o'lmakda uch qoidaga amal qildim:

- birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga;
- ikkinchidan, qilichini o'yatga olishiga;
- uchinchidan, aql-zakovatini kamolotiga".

Davomi 3-betda

XORIJDAGI VATANDOSHLAR "CHINOR" LOYIHASIDAN RUHIY QUVVAT OLMOQDA



Barcha xalqlar kabi o'zbeklar ham bir hovuch marvariddek dunyo bo'ylab sochilib ketgan. Turli sabablar va taqdir taqozosiga ko'ra, yurtimizdan uzoqda yashaydigan vatandoshlarimizning sog'inchi bir xil — Vatan sog'inchi. Har xil kasb egalari, turli lavozim, unvonlar sohibi bo'lishsa-da, yuraklarida O'zbekiston degan titroq sog'inch yashaydi. Bu ulug' his bilan yashaydigan vatandoshlarimizning orzu-umidlari "Vatandoshlar" jamoat fondining "Chinor" loyihasi doirasida amalga oshirdi.

O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi va "Vatandoshlar" jamoat fondi hamkorligidagi ushbu loyiha tadbirlarida ishtirok etish uchun

Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, AQSH, Portugaliya, Rossiyada yashayotgan bir guruh vatandoshimiz yurtimizga keldi.

Davomi 2-betda

Ish bilganga ming tanga

SAMONI QOPLAGAN OQ KABUTARLAR

YOXUD DALA CHETIDAN UNUMLI FOYDALANIB OILASINI OBOD QILAYOTGAN KAMTARIN DEHQON HIKOYASI

Farruxning ajdodlari aslida forishlik. Nurota tog'u adirlarida shovullab turgan bog'lar, adadsiz uzumzorlar barpo etgan bog'bonlar avlodidan bo'ladi. Dadasi cho'lquvarlarga qo'shilib, Do'stlik tumaniga kelgan va shu yerda dehqonchilik qilib qolib ketgan. Farrux ham ulg'aygach, Arnasoy tumanidan yer olib, otabobolari kasbini davom ettirdi, bog'dorchilik xo'jaligi tashkil etdi. Xoliq bobo u ish boshlaganida "Ilohim, sen mehnat qilgan zamindan oltin unsin!" deya duo qilgandi. U tashkil etgan bog'dorchilik xo'jaligiga nom izlab o'tirmadi, "Xoliq bobo duosi" deb nom qo'ydi. Bobosining duosi tufaylimi yoki qilgan mehnati samarasimi, haytovur, har yili shirasi tilni yoradigan uzum, olma yetishtirib, el dasturxoniga tortiq etmoqda, qo'shni davlatlarning bozorini ham obod qilmoqda.



— Xo'jaligimizda 16 gektar yer bor, 10 gektariga uzum, 6 gektariga olma ekanmiz, — deydi Farrux Xoliqov. — Uzunmni eksport qilish sal murakkabroq, shuning uchun olma eksportiga ko'proq e'tibor qaratayapman.

Darhaqiqat, tok juda katta mehnat talab qiladi. Birinchidan, u soyani ham, hamsoyni ham yoqtirmaydi, bog'bon sal e'tiborsiz bo'lsa, hosildorlik keskin tushib ketadi. Ikkinchidan, bog'bon ketmoni bilan erta bahordan

uzumzorga kirib, to hosili pishib yetilgunga qadar chiqolmaydi. Tok tagidan o'sib chiqqan bir dona begona o'tni ham chopib, tomiri bilan olib tashlashi kerak. Har yili kamida ikki-uch marta butun tokzor kovlanib, tok tomirlari erkin rivojlanishi uchun yumshatiladi. Begona o't ko'paysa, yer suvsizlanib, toklarning shira yig'ishi sustlashadi.

"Tok xususiyatlarga boy o'simlik, uzum inson tanasini tozalaydi, qonni yangilab turadi", derdi Xoliq bobo. U Ikkinchi jahon urushidagi bir voqeani so'zlab berishdan erinmasdi. Uning aytishicha, urushda bir forishlik yigit yaralanib, gospitalga tushib qoladi. Yaralangan hamma askarlarga hab doriga qo'shib yetti donadan mayiz berilar ekan. O'zbek yigiti yeb ko'rib, doriga qo'shib berilayotgan narsa mayiz ekanini sezibdi va uyiga mayiz yuborishlarini so'rab xat yozib yuboribdi. Ko'p o'tmay unga jo'natma kelibdi. Qutini ochib, vatanidan kelgan mayizni kaftiga to'ldirib og'ziga solibdi, mayizni chaynar ekan, yurtini, qishlog'ining hidini tuyib, ko'zidan duv-duv yosh oqibdi. Bir rus yigiti uni ko'rib, darhol shifokorga yuguribdi.

Davomi 4-betda

Kun mavzusi

ASOSIY STAVKA PASAYTIRILDI

Bu kredit foizlariga ham ta'sir qiladimi?

Moliya tizimida Markaziy bankning asosiy stavkasi, degan tushuncha bor. Iqtisodiyot sohalarida belgilanadigan ayrim narx va foiz talablari shunga asoslanadi. Masalan, tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar foiz stavkalarining aksariyati asosiy stavkaga bog'liq. Ya'ni uning tushishi yoki ko'tarilishi bevosita foizlar pasayishi yoki oshishiga olib keladi.

Davomi 4-betda

Saylov — 2024

SAYLOV KAMPANIYASIGA START BERILDI

YANGI TARTIB ASOSIDAGI SIYOSIY JARAYON 27-OKTABRDA BO'LIB O'TADI

Shu yil 26-iyulda Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi va qator tadbirlari bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlarining joriy yilda o'tkaziladigan saylovini Konstitutsiya va qonunlarga to'la muvofiq holda yuqori saviyada tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.

Davomi 2-betda

Olimpiada daftari

ZAFAR CHORLOVI

Nodir JONUZOQ

Olimp sari uchib kelgan qorako'zim,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga.
Ota yurtda jaranglagan yakdil so'zim:
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Tanti elning bor mehrini bergani Sen,
Qalqonman deb alpday ko'krak kergani Sen,
Eng chaqqoni, eng polvoni, mergani Sen,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Yalangoyoq ona yerdan kuch olding-ku,
Qanotsiz ham sor, lochinday ucholding-ku,
Kerak payti nomus uchun o'ch olding-ku,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Shamol bilan poyga o'ynab yayraganim,
Qilichini chaqmoqlarga qayraganim,
Temuriylar ichra tanlab-saylaganim,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Yetti otang ot ustida g'olib o'tgan,
Ko'k bo'riday uvlab, suron solib o'tgan,
Sher og'zidan o'z haqqini olib o'tgan,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Tirgak bo'lgay Vatandagi chinorlar ham,
Diyonatga ustun bo'lgan minorlar ham,
O'qishlasin raqiblaru chin yorlar ham,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Umid bilan kutar bolang — norasida,
Onang uchib yursin elning orasida,
G'alabangga butun millat zor aslida,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Duo bergan qo'li qadoq yurtdoshing-chun,
Samarqand, Kesh, Xiva, Qo'qon va Shoshing-chun,
O'lov-yurak, g'olib ruhli Yurtboshing-chun
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

Yutsang agar, dong'i doston bo'lajaksan,
Elda aziz, qadri osmon bo'lajaksan.
Shohsupada O'zbekiston bo'lajaksan,
G'alabaga talpin faqat, g'alabaga!

SAYLOV KAMPANIYASIGA START BERILDI

YANGI TARTIB ASOSIDAGI SIYOSIY JARAYON 27-OKTABRDA BO‘LIB O‘TADI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlari saylovi ularning vakolat muddati tugaydigan yilda oktabr oyining uchinchi o‘n kunligi birinchi yakshanbasida o‘tkazilishi belgilangan.

— Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari kengashlari deputatlarining vakolat muddati 2024-yilda tugashini inobatga olib, saylovlar joriy yilning 27-oktabrida o‘tkazilishi va saylov kampaniyasi 26-iyuldan boshlanishi haqida Markaziy saylov komissiyasining qarori qabul qilindi, — deydi Markaziy saylov komissiyasi raisi Zayniddin Nizomxo‘jayev. — Ushbu saylovlar Konstitutsiyamizda belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda o‘tkazilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu galgi saylovlarning o‘ziga xosligi shundaki, birinchidan, O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov, ya‘ni majoritar-proporsional tizim asosida o‘tkaziladi.

Jumladan, deputatlarning 75 nafari bevosita majoritar tizim asosida, ya‘ni saylovchilar aniq shaxslarga ovoz berish yo‘li bilan, qolgan 75 nafari esa proporsional tizim bo‘yicha siyosiy partiyalarga berilgan ovoz asosida saylanadi.

Ikkinchidan, barcha darajadagi saylov komissiyalari faoliyati, ularning saylov jarayonlari ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlari to‘liq raqamlashtirildi. Saylov tartibotlaridagi byurokratiya, ortiqcha vaqt sarfi va hujjatlar harakati qisqartirildi.

Uchinchidan, saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi. Xususan, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishda ayollar ulushi kamida 40 foiz bo‘lishi belgilandi.

Hayrat



Zulfiya MO‘MINOVA,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

Boshlanishi 1-betda

Shu yil 15-iyuldan 21-iyulgacha davom etgan safarda mehmonlar O‘zbekistonning milliy va an‘anaviy urf-odatlari bilan tanishib, “Uch avlod uchrashuvi” ma‘rifiy tadbirlarida ishtirok etdi. Tarixiy obidalariga sayohat qilib, yangi O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlarga guvoh bo‘ldi.

— O‘zbekiston Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi tegishli qaroriga binoan “Vatandoshlar” jamoat fondi tashkil etilgan, — dedi fond boshqaruvi raisi Odiljon Sattorov. — U xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ona vatanimiz atrofida yanada jipslashtirish, milliy o‘zlikni saqlab qolish, xorijdagi yurtdoshlarga madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etishda ko‘maklashish vazifalarini bajarib kelmoqda. Joriy yil 1-iyulda “Nuroniylar” jamg‘armasi respublika boshqaruvi vakillari bilan uchrashib, “Chinor” loyihasi doirasida hamkorlikda tadbir tashkil etishga kelishgandik. Shu maqsadda turli davlatlardan 45 faxriy vatandoshimiz yurtimizga keldi.

“Nuroniylar” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi, O‘zbekiston Qahramoni, senator Sodiqjon Turdiyev

Saylov kodeksining 37-moddasiga ko‘ra, siyosiy partiyalar Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatligiga nomzod ko‘rsatish huquqiga ega. Saylovda ishtirok etish uchun siyosiy partiyalar saylov kampaniyasi boshlangani e‘lon qilingan kundan kamida to‘rt oy oldin Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan bo‘lishi va partiyaning saylovda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlovchi kamida 40 ming saylovchi imzosini to‘plashi lozim.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Islohotlar amalda

Yaqinda Prezidentimiz raisligida hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha birinchi yarim yillik tahlili va yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda joriy yil hududiy korxonalarida 164 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgani va bu boradagi o‘shish 8,6 foizni tashkil qilgani e‘tirof etildi. Xususan, 87 ta tumanda hududiy sanoat o‘shishi respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lgani ta‘kidlandi.



Bu borada Xo‘jayli tumanida ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Hududdagi sanoat korxonalari nafaqat mahalliy, balki tashqi bozorga ham dadil chiqyapti. Bu esa Orolbo‘yi hududining iqtisodiy yuksalishida muhim omil bo‘lmoqda.

Xo‘jaylilik 28 yoshli tadbirkor Yusufbek Karimov bugun katta biznesga ega. Shu bois, uni Orolbo‘yida yaxshi tanishadi. Yigit bundan yetti yil oldin “Xo‘jayli un mahsulotlari” korxonasiga asos solgan.

— Korxonamiz Turkiyadan keltirilgan uskunalar bilan jihozlangan. Bir kecha-kunduzda 200 tonnagacha un ishlab chiqarish quvvatiga ega. 70 dan ortiq kishi doimiy ish bilan ta‘minlangan, — deydi Yusufbek Karimov. — Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati mahalliy bozorini “Xo‘jayli un mahsulotlari” va “Jayhun” brendi ostida un mahsulotlari bilan ta‘minlab kelyapmiz. Shuningdek, Afg‘oniston bilan shartnoma tuzib, o‘tgan yili 1 million 41 ming dollarlik, joriy yil shu kuniga qadar esa 952,1 ming dollarlik un eksport qilindi.



BANDLIK TA‘MINLANGAN JOYDA...

Umumiy qiymati 30,4 milliard so‘mlik ushbu tadbirkorlik subyekti mahalliy bozorda allaqachon o‘z o‘rniga ega. Bu yerda ayni kunda yiliga 50 ming tonna un ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlar 28 ta savdo shoxobchasida sotilmoqda.

Korxona muhandis-texnologiyasi Rustem Ayimbetov un ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishtirdi. Zavod to‘liq avtomatlashtirilgan. Faqat nazorat qilib turish kerak, xolos.

Tadbirkor Yusufbek Karimov qurilish sanoati va baliqchilik yo‘nalishida ham faoliyat yuritmoqda. Unga Xo‘jayli tumanidagi “Samanko‘l” ovul fuqarolar yig‘ini hududida 300 ming dollar investitsiya kiritish sharti bilan 20 gektar yer ajratilgan edi. Tadbirkor bu yerda intensiv usulda baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘ydi.

Mazkur tumandagi “Kun nuri” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida neftni qayta ishlash zavodining ishga tushirilishi mahalliy aholi uchun katta voqea bo‘ldi. Ayni paytda bu yerda 92 kishining bandligi ta‘minlangan.

— Korxonamiz Rossiya, Qozog‘iston, Turkmanistondan neft mahsulotlarini import qilib, undan benzin va dizel yonilg‘isi ishlab chiqarmoqda. Hozir mahalliy bozorlarni mahsulot bilan ta‘minlab, Afg‘onistonga ham eksport qilyapmiz, — deydi “Karbalt Rutoil” korxonasi rahbari Xojabay Matyakupov. — Korxonamizning loyiha qiymati 5 million dollarni tashkil etadi. Yiliga 36 ming tonna neftni qayta ishlash quvvatiga ega.

Xo‘jayli tumanidagi “Kyung Dong Slice” korxonasi 2011-yildan buyon qizilmiya ildizini qayta ishlash bilan shug‘ullanib keladi. Mahsulot, asosan, Janubiy Koreyaga



eksport qilinadi. Bugun korxonada 35 kishi faoliyat yuritmoqda.

— Har yili Janubiy Koreyaga 200 tonna qizilmiya ildizi eksport qilyapmiz. Ushbu mahsulotni dastlab saralab, so‘ng tozalashga kirishamiz. Mahsulot yoz mavsumida quyosh nuri taftida bir hafta quritiladi. Qishda esa maxsus pechda quritiladi, — deydi korxona ish yurituvchisi Hokimjon Mamadjonov. — Qizilmiya tayog‘chalari yuvilgandan so‘ng qozonlarga solinib, 100-110 daraja issiqlikda bug‘lanadi. Shundan so‘ng buyurtmachilar talabi bo‘yicha maxsus uskunalarda qadoqlanadi.

Bunday katta quvvatga ega yirik korxonalar Xo‘jayli tumani aholisini ish bilan ta‘minlash barobarida hudud iqtisodiyotini ko‘tarishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Haqiqatan, bugun tuman iqtisodiy rivojlanish sari qadam bosmoqda. Joriy yil iyun oyi oxirigacha Xo‘jayli tumanida 1 million 828,1 ming dollarlik mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, shundan sanoat mahsulotlari 1 million 427,3 ming, meva-sabzavot mahsulotlari 400,8 ming dollarni tashkil etdi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

XORIJDAGI VATANDOSHLAR “CHINOR” LOYIHASIDAN RUHIY QUVVAT OLMOQDA

mamlakatimizda keksa avlod vakillariga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlik, ular salomatligini asrash, mazmunli hayot kechirishi va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta‘minlash borasidagi sharoit va imkoniyatlar, “Nuroniylar” jamg‘armasining vazirliklar va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi haqida so‘zlab berdi.

— “Vatandoshlar” fondi bilan hamkorlikda xorijdagi yurtdoshlardan bir guruhining O‘zbekistonga safari uyushtirilgani, avvalo, mamlakatimizda xalqaro hamdo‘stlik aloqalarini mustahkamlash yo‘lidagi oqilona siyosat natijasidir, — dedi Sodiqjon Turdiyev. — Uzoq yillar hatto qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarda ham juda ko‘p muammolar bor edi. 2017-yilga kelib, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalarimiz tiklandi, mamlakatga emin-erkin kirib-chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Xalqlarimizning o‘zaro qarindosh-urug‘chilik, yaqin qo‘shnichilik munosabatlari borasidagi qiyinchiliklarga barham berildi.



Qadimiy va hamisha navqiron Buxoroga sayohat mehmonlarda unutilmas taassurot qoldirdi. Mehmonlar ziyoratni Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniylar maqbarasidan boshladi. Maqbara atrofidagi yangi qurilish va 10 gektarlik bog‘ni ko‘rib hayratlangan mehmonlardan biri — Tojikiston Yozuvchilar ittifoqi va Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi, Lohutiy nomidagi jurnalistlar mukofoti sovrindori Sulaymon Ermatov biz bilan taassurotini o‘rtoqlashdi.



asl vatani O‘zbekistonga kelib-ketishimiz oson kechmadi. O‘zbekiston rahbarining siyosiy irodasi bilan ochilgan yo‘llar ikki mamlakat fuqarolarining azaliy qardoshlik rishtalarini yanada mustahkamlab, biz — O‘zbekistondan uzoqda yashayotgan o‘zbeklarning sog‘inchi iztirobidan ezilgan diliga malham bo‘ldi.

Qirg‘izistondan kelgan Latifjon Ahmadaliyev Jalolobod viloyatidagi O‘zbek milliy markazi rahbari.

— 1971-yili Farg‘ona davlat pedagogika universitetining kimyo-biologiya fakultetiga o‘qishga kirib, 1975-yilda oliy ma‘lumotli mutaxassis diplomini olib ketganman. Ota-bobolarimning asl makoni men uchun qanchalik qadriligi so‘z bilan ta‘riflashim qiyin. O‘zbekiston qudratli mamlakatga aylanmoqda. Toshkent shahridagi bir qancha yangi qurilgan majmualarga bordik. Xususan, texnoparkka sayohat menda katta taassurot qoldirdi. Yirik kompaniyalardagi ishlab chiqarish jarayoni bilan yaqindan tanishib,

Toshkent shahrini tomosha qilgan vatandoshlar hayratini yashira olmadi. Qozog‘istondan kelgan vatandoshimiz — onkolog, tibbiyot fanlari doktori, professor Nasrulla Shonazarov Ostonadagi shifoxonada terapiya markazi rahbari bo‘lib ishlaydi.

— Toshkentning bugungi jamolini ko‘rib, afsonalar shahriga kelib qolgandek his etdim o‘zimni, — deya taassurotlari bilan o‘rtoqlashdi u. — Bu yerda barchasi go‘zal va maftunkor. Toshkentga kirib kelishim bilan yurak-yuragimdan unga yaqinlik his etdim. Uzoq yillar ota-bobolarimning



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 27-iyul, 150-son

Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!



Hamdam QARSHIYEV,
Mudofaa vazirining tarbiyaviy
va mafkuraviy ishlar bo'yicha
o'rinbosari, general-mayor

Boshlanishi 1-betda

Bundan yetti asr avval aytilganiga qaramay, ushbu uch oltin qoida bugungi kunda dunyoning rivojlangan davlatlari harbiy qurilishida dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Qurolli Kuchlari poydevori ham aynan mana shu muhim qoidalar asosiga qurilgan mamlakatimizda harbiy ishning qanchalik to'g'ri yo'ldan ketayotganini tasdiqlaydi.

Joriy yil 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tgan edi. Unda davlatimiz rahbari faoliyatimizni tanqidiy tahlil etib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini qayta ko'rib chiqish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi. Navqiron avlod vakillarining yurtimizdagi islohotlar jarayonidagi ishtirokini oshirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yog'ba chiqarishi uchun sharoit yaratish muhimligiga e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda har birimiz amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarurligini alohida ta'kidladi. Shuningdek, yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash maqsadida mediamakondagi harbiy-vatanparvarlik ruhidagi ishlarni kuchaytirish borasida ham aniq vazifalar oldik. Ana shu muhim topshiriqlar ijrosini ta'minlash, belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish borasida sohada ko'plab ishlar qilindi, yangidan yangi loyihalar amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etildi.

“G'oyaviy jangchi”

Prezidentimiz shu yil Vatan himoyachilariga yo'llagan bayram tabrigida **“Buyuk Amir Temur boboniz aytganidek, g'alaba taqdirini avvalo qo'shinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma'naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi.**

Shu bois, milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qo'rqmas va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhni oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi”, degandi.

Darhaqiqat, Mudofaa vazirligi qo'shinlarida



harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarligini oshirish va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari “Vatan — muqaddas, uni himoya qilish sharaflari burchdirl!” konseptual g'oyasi asosida olib borilmoqda. Shu maqsad yo'lida qo'shinlarda harbiy xizmatchilar bilan fan, madaniyat va san'at arboblari, yozuvchi va shoirlar ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, buyuk sarkarda va allomalarning ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan davra suhbatlari, intellektual o'yin va viktorinalar, tarixiy-madaniy maskanlar va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar tashkil etilmoqda.

Xususan, Qurolli Kuchlar tashkil etilganining 32 yilligiga bag'ishlab **“Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidirlari”** shiori ostida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari bilan ijodkor ziyolilar, madaniyat, san'at va sport namoyandalari ishtirokida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar, madaniy-ko'ngilochar tadbirlar hamda ommaviy sport musobaqalari uyushtirildi.

Qolaversa, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda “Mudofaa vazirligi qo'shinlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini

VATAN — MUQADDAS,
UNI HIMOYA QILISH
SHARAFLI BURCHDIR!

oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha 2024-yil uchun “yo'l xaritasi” ishlab chiqilib, ijrosi faol tashkil etilgani ayni muddao bo'ladi.

Qurolli Kuchlar akademiyasida turli mutasaddilar va keng jamoatchilik ishtirokida “Mard askarga sovg'a” kitobi taqdimotiga bag'ishlangan ma'rifiy tadbirda Jamoatchilik kengashi a'zolari, madaniyat va san'at vakillari, yozuvchi va shoirlar qatnashdi. 15 nafar fidoyi ijodkor Mudofaa vazirligining “Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Mudofaa vazirining qo'shinlarda ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash va suididal holatlarning oldini olishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi buyrug'i qabul qilinib, unda mansabdor shaxslar (guruh, vvzvod, batalyon, harbiy qism komandiri)

Mudofaa vazirligi mahalliy hokimliklar va yoshlar bilan birgalikda 123 nafar urush qatnashchisiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan tabrik, esdalik sovg'a va 20 million so'mdan pul mukofoti topshirildi.

“

Mudofaa vazirligi tomonidan tegishli vazirlar va idoralar hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan faxriy holidan xabar olinib, ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatildi.

Qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyida “XX asr jadid adabiyoti: vujudga kelishi, yo'nalishi, namoyandalari, ahmiyati” mavzusida respublika ilmiy anjumani tashkil etildi.

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari hamda Kinematografiya agentligi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolab, kursant va tinglovchilarni ma'naviy, g'oyaviy-siyosiy jihatidan tarbiyalash borasida kinoifmlar haftaliklarini tashkil etish, oliy harbiy ta'lim muassasalari (kursantlar, tinglovchilar, professor-o'qituvchilar) faoliyatiga bag'ishlab badiiy va hujjatli filmlar yaratishga kelishib olindi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli jamoasi vodik viloyatlariga gastrol safarda bo'lib, chekka hududlardagi qishloq va mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi va yoshlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun konsert dasturlarini namoyish etdi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarga buyuk sarkarda ajdodlarimiz tarixiy dramasidan sahna ko'rinishlari va rolklar namoyish qilinib, badiiy kitoblar tuhfa etildi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli jamoasi vodik viloyatlariga gastrol safarda bo'lib, chekka hududlardagi qishloq va mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi va yoshlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun konsert dasturlarini namoyish etdi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarga buyuk sarkarda ajdodlarimiz tarixiy dramasidan sahna ko'rinishlari va rolklar namoyish qilinib, badiiy kitoblar tuhfa etildi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli jamoasi vodik viloyatlariga gastrol safarda bo'lib, chekka hududlardagi qishloq va mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi va yoshlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun konsert dasturlarini namoyish etdi. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarga buyuk sarkarda ajdodlarimiz tarixiy dramasidan sahna ko'rinishlari va rolklar namoyish qilinib, badiiy kitoblar tuhfa etildi.

Millat g'ururi va iftixori

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Sharqshunoslik universiteti, Temuriylar tarixi va Qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeylari bilan hamkorlikda 2024-2025-o'quv yili uchun ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikning yangi o'quv dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur milliy tariximiz, jadid ajdodlarimiz hamda ezgu qadriyatlarimizga hurmat, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan yangi mavzular bilan boyitildi.

Qo'shinlarda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish hamda jismoniy va ruhiy bosimlarga qarshi bardoshlilikni mustahkamlashga qaratilgan Jangovar tayyorgarlik jarayonida shaxsiy

tarkibning psixologik tayyorgarligi hamda jangovar ruhini oshirish dasturi ishlab chiqilib, psixologik kuzatuvni tashkillashtirish bo'yicha o'quv-uslubiy filmlar tayyorlandi. Shuningdek, ofitserlarning tarbiyaviy va psixologik ishlar sohasida o'zaro tajriba almashish maqsadida Ozarbayjon armiyasidagi yakka tartibdagi tarbiyaviy ishlar, yoshlar orasida milliy armiyaning nufuzini oshirish borasidagi ilg'or tajribalar o'rganildi.

Mudofaa vazirligi mahalliy hokimliklar va yoshlar bilan birgalikda 123 nafar urush qatnashchisiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan tabrik, esdalik sovg'a va 20 million so'mdan pul mukofoti topshirildi.

Mudofaa vazirining alohida buyrug'i bilan xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan 95 harbiy xizmatchining oila a'zolari hamda xizmat burchini bajarish vaqtida tan jarohati olib, nogiron bo'lib qolgan 37 harbiy pensioner moddiy va ma'naviy rag'batlantirildi.

Qo'shinlarni yuqori jangovar shaylikka keltirish va ularni safarbar etishda axloqiy-ruhiy ta'minotni tashkillashtirish bo'yicha qo'llanma, qo'shinlarda harbiy psixologlar va yo'riqchi-serjantlarning rolini oshirishga qaratilgan 2024-2025-o'quv yili uchun amaliy chora-tadbirlar kompleks rejasini ishlab chiqildi va qo'shinlarga yuborildi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug Nukus umumqo'shin poligonida ilk marotaba **“Kompleks axloqiy-ruhiy tayyorgarlik shaharchasi”** yaratildi. U yerda ko'chma malaka oshirish kursi faoliyatini yuritish boshlandi. Harbiy psixologlar bilan **“Klinik psixologiya”** mutaxassisligi bo'yicha o'quv kursi tashkil etildi.

Qurolli Kuchlar miqyosida o'tkazilgan qo'mondonlik-shtab mashqi jarayonida jang sharoitida qo'shinlarning axloqiy-ruhiy ta'minotini va psixologik tayyorgarligini tashkillashtirish tadbirlari amalda qo'llandi. O'quv davomida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlarining shu sohada bilim va ko'nikmalari oshirildi.

Vatan uchun, millat uchun,
ona xalq uchun

Harbiy tibbiyot akademiyasida “Men, albatta, harbiy bo'laman!” hamda “Men Vatan posboniman!” kitoblari taqdimoti o'tkazildi. Umuman, yozuvchi va shoirlar ishtirokida 130 dan ortiq yangi va ommabop kitob taqdimoti, 70 marotaba kitob yarmarkasi tashkil etildi.

Muddatli harbiy xizmatga yangi chaqirilgan harbiy xizmatchilar uchun “O'zbekiston tarixi” va “Temur tuzuklari” kitoblaridan 36 mingdan ortiq hamda “Armiya — hayot maktabi” risolasidan 20 mingga yaqin, yana shuncha “Mard askarga sovg'a” kitobi xarid qilinib,

harbiy qism va muassasalarga tarqatildi.

Vazirlar Mahkamasining Mudofaa vazirligining Ma'naviyat va madaniyat departamenti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlariga oid tegishli qarori bilan Mudofaa vazirligi tizimida madaniyat va san'atni rivojlantirish bo'yicha “yo'l xaritasi”, Ma'naviyat va madaniyatni rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Shuningdek, qo'shinlarda ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ishlarni hamda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishlarini yanada takomillashtirishga ko'maklashish maqsadida alohida bo'lim tashkil etildi.

2024-yilning birinchi yarim yilligida



“Turon” harbiy teatri davlat muassasasi tomonidan o'zbek xalqining boy madaniyati, buyuk ajdodlarimiz jasoratini o'zida aks ettirgan hamda harbiy xizmatchilar va yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishga qaratilgan “Chiston”, “Shikor”, “Teshiktosh”, “Zikru anor”, “Omon bo'lsang, unutma”, “Hammasi qo'shiq, ishq haqida” spektakllari sahnalashtirildi.

Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli tomonidan harbiylar va yoshlarda Vatanga sadoqat, mardlik, fidoyilik va milliy g'ururni yuksaltiruvchi hamda Vatanni madh etuvchi yangi qo'shiqlar, shuningdek, harbiy xizmatchilarda milliy va jangovar ruhni oshirishga xizmat qiluvchi qo'shin turlariga oid jangovar-saf qo'shiqlari, saf marshlari va milliy musiqiy asarlar yaratildi.

Bundan tashqari, bo'linma tarkibida saf qo'shiqlarini jiro etish uslubiyati va eng yaxshi ijro etilgan saf qo'shig'i ko'rik-tanlovining nizomi ishlab chiqildi va qo'shinlarga joriy etildi.

Harbiy-vatanparvarlik
karvonlari

“Jizzax tajribasi” asosida profilaktik hisobda turgan va tabiyrasi og'ir yoshlar bilan harbiy qismlar bazasida “Jasorat maktabi” harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlari o'tkazildi. Mazkur toifadagi yoshlar bilan “Harbiy qismda

bir kunim!” shiori ostida maxsus dastur bo'yicha harbiy-vatanparvarlik tadbirlari tashkil etildi.

“Er yig'itning er yig'itga aytgan gapi ta'sirli bo'ladi!” shiori ostida yoshlarning poligon hamda harbiy qismlarga tashriflari tashkil etilib, ularga jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari namoyish etildi.

Bu hali hammasi emas. Olis tuman va mahallalar yoshlari uchun “Mard askar yoshlarga namuna” shiori ostida harbiy-texnika va qurol-aslahalar namoyishi, harbiy xizmatchilarning qo'l jangi chiqishlari, orkestr va ansambli jamoalarining konsert dasturlarini o'z ichiga olgan **harbiy-vatanparvarlik karvonlari** uyushtirildi. Shu bilan birga, yoshlar o'rtasida **“Amir Temur izdoshlari”, “Jaloliddin Manguberdi vorislari”** harbiy-sport musobaqalari hamda sog'lom turmush tarzi targ'ibotiga qaratilgan yugurish marafonlari tashkil etildi.

“G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasida madaniy ko'ngilochar va harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini o'z ichiga olgan, mudofaa sohasida innovatsion texnologiyalar festivali o'tkazildi. Tadbir doirasida yoshlar o'rtasida dron-reyting, robototexnika, uchuvchisiz uchish apparatlarini loyihalashtirish, kibersport, dasturlash, hakerlik ustasi, ZD modellashtirish musobaqalari va innovatsion ishlanmalar bo'yicha tanlovlar o'tkazilib, g'oliblar munosib rag'batlantirildi.

“Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati, uning hududiy bo'lim va bo'linmalari, maktablardagi 10 mingga yaqin o'trad mart-aprel oyida “Yashil makon” umummilliy harakati, may oyida esa “Mehr-saxovat” ishlari faol qatnashdi.

Qozog'istonda 6 ta davlatning 50 jamoasi o'rtasida o'tkazilgan “Aybin — 2024” xalqaro harbiy-sport musobaqasida “Vatan tayanchi” jamoamiz faxrlari 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Yangicha tizim

Mudofaa vazirligiga birlashtirilgan 1 million yosh bilan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 812 mingdan ziyod yoshning ro'yxati shakllantirilib, 7 toifaga ajratildi. Mahallalarga birlashtirilgan harbiy xizmatchilar “mahalla yetitilgi” bilan qariyb 793 ming yoshni

xonadonbay asosda birma-bir o'rgandi. Ular bilan o'tkazilgan yakka tartibdagi suhbatlar natijasida 102 ming 281 muammoli yosh aniqlanib, 14 ming 441 nafarining muammolari sektor va tegishli tashkilotlar rahbarlari yordamida hal etildi.

Qurolli Kuchlar akademiyasi (Qora-qalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Jizzax viloyatlaridan 24 ming) va Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtiga (Toshkent viloyatidan 10 ming) birlashtirilgan og'ir toifadagi yoshlar bilan tizimli ishlab bo'yicha tegishli hokimliklarning alohida qarorlari qabul qilindi.

Yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va ularga chet tillarni o'rgatish borasida “Vatanga sodiq yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlari o'tkazilib, 11 mingdan ortiq yosh o'qitildi.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan raqam va ma'lumotlar hisobotlarni bezab turadigan shunchaki faktlar emas. Chunki har bir raqam ortida ona Vatanimizning kelajagi bo'lgan umidli yoshlarimiz, mamlakatimiz qudrati, istiqbolimiz tayanchi — milliy armiyamiz safida sharaflar bilan xizmat qilyotgan harbiy xizmatchilarimiz taqdiri, ertangi kunga ishonchi mujassam.

Zero, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, **“Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo halokat — yo saodat, yo falokat masalasidir”**.

2024-yil 27-iyul, 150-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Kun mavzusi

ASOSIY STAVKA
PASAYTIRILDI
13,5%

Bu kredit foizlariga ham ta'sir qiladimi?

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Asosiy stavka 2017-yilning iyun oyi oxirida, valyuta liberalizatsiyasiga tayyorgarlik doirasida 9 foizdan 14 foizgacha ko'tarilgan va shundan keyin bugungi kungacha 14 foizdan pastga tushmagan edi. Shu kunlarda ushbu stavka oxirgi 7 yildan buyon ilk bor pasaytirildi. Aniqlik, joriy yil 25-iyul kuni Markaziy bank boshqaruvi asosiy stavkani 0,5 foiz bandga pasaytirib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilash to'g'risida qaror qabul qildi.

Ushbu qarorning qabul qilinishi bir qancha omillar bilan bog'liq, — deydi Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmuratov. — Bunga, avvalo, oxirgi oylarda bazaviy inflyatsiya barqaror pasayib borishi hamda energiya tariflari oshirilishining inflyatsiyaga ikkilamchi ta'sirlari kutilganidan past bo'layotgani va natijada yil yakuniga inflyatsiya prognozi pasayishi ta'sir ko'rsatdi. Xususan, iyun oyida umumiy inflyatsiya yillik 10,6 foiz darajasida shakllanib, inflyatsiyani barqaror komponentlari va meva-sabzavot narxlarida sezilarli pasayish kuzatildi. Yanvar-iyun oylarida iste'mol savati tarkibidagi 73 foizdan ortiq tovar va xizmatlar narxlari oshishi avvalgi yildagidan past bo'ldi. Ayniqsa, joriy yilda meva-sabzavotlar o'rta

narxi o'zgarishining inflyatsiyaga ta'siri so'nggi 4 yillikdagi eng past ko'rsatkichni qayd etdi. Bazaviy oziq-ovqat inflyatsiyasining yillik 4,1 foizgacha pasayishi kuzatildi.

Energiya tariflari o'zgarishisiz hisoblangan umumiy inflyatsiya 7 foizgacha pasaydi. Ushbu omillar aholining inflyatsion kutilmalariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, iyun oyida bu 12,8 foizgacha va tadbirkorlarda esa 11,9 foizgacha pasaydi. Natijada inflyatsiya kelgusi choraklarda ham pasayuvchi trayektoriyada shakllanishiga ishonchimiz oshib bormoqda. Yil yakunida umumiy inflyatsiyaning 9 foiz atrofida shakllanishi va 2025-yil oxirida 5 foizlik target darajasiga yaqinlashishi kutilmoqda.

Shuningdek, yangilangan prognozlar bo'yicha hozirgi kunda shakllangan 0,5-0,6 foizli YIM ijobiy tafovutining yil yakunigacha yopilishi kutilmoqda. Bunda iqtisodiy rivojlanishning ta'siri katta. Buni joriy yilning 1-yarim yillik yakuni bo'yicha mamlakatimiz iqtisodiyoti real hisobda 6,4 foiz o'sgani ham tasdiqlaydi. Yuqori investitsion faollik, xususan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy va xususiy kapital qo'yilmalari yalpi investitsion talab oshishiga xizmat qilmoqda. Tadbirkorlar faoliyatida ham, aholi turmush darajasida ham ijobiy o'sish ortmoqda. Odatda mehnat bozori dinamikasini o'rganish uchun muqobil ko'rsatkich sifatida bo'sh ish o'rinlari bo'yicha e'lonlarni kuzatib boramiz. Apreldagi yuqori ko'rsatkichlardan so'ng may-iyun oylarida e'lonlar kamayishi kuzatildi. Buni, bir tomondan, mavsumiy xarakterli bilan, ya'ni yoz oylarida ayrim sohalarda ishchi



kuchiga ehtiyoj qisqarishi, boshqa tomondan, mehnat bozorida ishchi kuchiga talabning muayyan darajada muvozanatlashishi bilan izohlash mumkin.

Pul bozoridagi sharoitlar nisbatan qat'iy fazada shakllanib, aholining jamg'arish faolligi oshib borayotgani ham muhim jihatlardan biri. Xususan, 2-chorakda ham “nisbatan qat'iy” pul-kredit sharoitlari ta'sirida pul bozori foiz stavkalari asosiy stavkaga yaqin, inflyatsiyadan 3-4 foizli ijobiy tafovut bilan shakllandi. Mazkur jihating saqlanib qolishi va almashuv kursi barqarorligi so'mda jamg'arish jozibadorligini oshirib, aholi omonatlarida

yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlamoqda. Ayni paytda aholi omonatlarining qariyb 80 foizi so'mda shakllangan bo'lib, so'mdagi muddatli depozitlarida yillik 1,5 barobarlik yuqori o'sish sur'ati saqlanib qolmoqda.

O'zgarish
qanchalik seziladi?

Markaziy bank asosiy stavkasining yarim foiz bo'lsa-da, pasayishi aholi tomonidan qizg'in qarshi olindi. Odamlar endi bank kreditlari foizlari ham pasayishini taxmin

qilmoqda. Iqtisodchilar fikricha, 0,5 foiz tushgan asosiy stavkaning ochiq bozordagi depozitlar va kreditlar narxiga ta'siri yuqori bo'lmaydi.

Markaziy bank raising ta'kidlashicha, stavkaning pasayishi u bilan bog'liq o'zgaruvchan foizlarda ajratilgan kreditlarning ham xuddi shu darajada pasayishiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, endilikda ta'lim kreditlari yillik 13,5 foiz, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasidagi kreditlar esa yillik 17,5 foiz stavkada hisoblanadi. Bu hatto bugungi kunga qadar olingan kreditlarga ham amal qiladi. Chunki tijorat banki bilan tuzilgan shartnomada olingan kredit foiz stavkasi asosiy stavkaga bog'langan hollarda u o'zgarishi (oshishi yoki pasayishi) aniq ko'rsatilgan bo'ladi.

Ammo mutaxassislar kredit foizlarini asosiy stavkaga bog'lab xulosa qilish birmuncha noto'g'ri ekanini ham ta'kidlamoqda. Boisi, qarz oluvchi bilan bank o'rtasidagi muloqot qarz oluvchining to'lov layoqatidan kelib chiqib belgilanadigan jarayondir.

Mutasaddilarning bildirishicha, mamlakatimizda yil boshidan buyon depozit va kredit foiz stavkalari dinamikasi turlicha ko'rinishga ega bo'ldi. Aholining milliy valyutadagi omonatli foiz stavkalarida kichik o'sish kuzatilgan bo'lsa, kreditlar bo'yicha sezilarli o'zgarishsiz qolib, o'rta 23,6 foizni tashkil etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, shu yilning birinchi yarim yilligida banklar tomonidan jami 127 trillion so'm kredit ajratilgan bo'lib, uning

64 foizi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keladi.

Umuman, foiz stavkalarini bozor talablari asosida doimiy kuzatib borish va o'zgarishlar kiritib turish samaraliroq, nazariyda. Chunki hozirgi sharoitda bozor tendensiyasi nihoyatda o'zgaruvchan va narx-navoni oldindan prognozlash ancha mushkul. Aholi daromadlari va yashash sharoitlari borasida ham shunday deysiz mumkin. Bunday sharoitda belgilanadigan stavkalarining oshishi bilan birga pasayishi ham odatiy holga aylanishi kerakdek.

Markaziy bank boshqaruvining asosiy stavkani 0,5 foiz pasaytirish qarorini iqtisodiyotda bazaviy inflyatsiyaning barqaror pasayuvchi trendi vujudga kelgani va yil yakuniga qadar inflyatsiyaning prognoz darajasigacha pasayishi uchun yetarli sharoitlar shakllanganini e'tirof etish deb baholasak to'g'ri bo'ladi, — deydi Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmuratov. — Bu qaror pul-kredit sharoitlarini qat'iy darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va uning “cheklovchi” xarakteri saqlanib qoladi. Noaniqliklar va xatarlar mavjud sharoitda esa shakllanayotgan iqtisodiy vaziyat, inflyatsiya dinamikasi va prognozi, inflyatsion kutilmalar hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng so'nggi statistik ma'lumotlarga asoslanib, har bir boshqaruv yig'ilishida tegishli qarorlar qabul qilib boriladi. Asosiy maqsad joriy yil yakuniga qadar inflyatsiya darajasini 9 foizgacha pasaytirib, o'rta muddatli istiqbolda uning 5 foizli targetiga erishishdan iborat.

Yana bir ma'lumot. Markaziy bank boshqaruvi Davlat qimmatli qog'ozlari daromadlilik egri chizig'ini hisoblash va e'lon qilish tartibini ham tasdiqladi. Unda moliya bozori ishtirokchilarining foiz stavkalari va makroiqtisodiy kutilmalarini o'rganish, qarz majburiyatlari bo'yicha muddatlar va foiz stavkalari o'rta darajada bog'liqlik to'g'risida ma'lumot taqdim etish hamda iqtisodiyot subyektlarining investitsion qaror qabul qilishiga ko'maklashish kabi vazifalar nazarda tutilgan. Mazkur tartibga ko'ra, joriy yil 1-sentabrdan davlat qimmatli qog'ozlari daromadlilik egri chizig'i har hafta Markaziy bankning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilib boriladi.

Ish bilganga ming tanga

Boshlanishi 1-betda

U “Tez yuring, o'zbek askar o'zini o'lirmoqchi, kaftlab dori yeyapti!” debdi. Shifokor kelsa, haqiqatan, o'zbek askari boshqalarni ham mayiz bilan mehmon qilayotgan ekan. Shundan so'ng askar yigit shifokorning iltimosiga ko'ra, uyiga tez-tez xat yozib, mayiz jo'natishlarini so'raydigan bo'libdi. O'zbekistondan borgan mayizlarni yarador askarlarga tarqatar ekan.

Men Forishga borib, mirishkor bog'bonlardan maslahat olib turaman. Tokzorimda mayizbop uzumlamni ko'paytirish ustida izlanyapman. To'g'ri, mayiz tayyorlashning zahmati ko'p, ammo Bog'donning soyaki mayizini yetishtirgan kunim hamma qiyinchilik va charchoqlar chiqib ketsa kerak, — deydi Farrux kulimsirab.

Farruxni Armasoyda yaxshi bilishadi. G'alati odatlariga ham ko'nikib ketishgan. G'alati odatlari esa uning ishqibozligi. U parranda boqishga qiziqadi. Bolaligida ham kaplar boqqan. Mol ozuqasi uchun jamg'arilgan donni kaplarlariga berib, molga yem yetmay qolganda dadasidan yaxshigina gap eshitgan paytlar ham bo'lgan.

Daladan charchab kelganimda, kaphtarlar qafasi eshigini ochib yuboraman. Samoni oppo kaphtarlar qoplaydi, ularga qarab turib hushtak chalay yuboraman. Hushtagimni eshitgan kaphtarlar ko'kada turli “raqslar” ko'rsatadi... Ko'ngilda osudalik paydo bo'ladi, — deydi Farrux.

U o'z tuyg'ulariga bizni ham oshno qilish uchun kaphtarlarini parvozga undaydi.

SAMONI QOPLAGAN
OQ KABUTARLARYOXUD DALA CHETIDAN UNUMLI FOYDALANIB OILASINI
OBOD QILAYOTGAN KAMTARIN DEHQON HIKOYASI

U aytganday, ko'k oppo kaphtarlariga to'ldi. Ularning uchishiga mahiyo bo'lib qolganingni sezmayсан, go'yo ular tinchlik, ozodlik ramziday, bepoyon osmonni quchishadi.

Farrux Xoliqovning dala uyini aylanib, 40 dan ortiq tovuq boqilayotganini, bir qafasda esa besh-oltita ustovuq, kaklik borligini ko'rib, unga savol nazari bilan qaradik.

— 2023-yilda Prezidentimiz viloyatimizga tashrif buyurganida Paxtakor tumanidagi

Darhaqiqat, qizil, oq atirgullar chamanday gullagan, ifori atrofga taralmog'da. Archalar esa odam bo'yidan baland jozib qolibdi, ular tegrasidagi salqinlik Armasoyning jazirama issig'ida odamga xush yoqadi. Dala uyining atrofi ham yam-yashil, bir tomonda kartoshka gullay boshlagan, 3-4 sotix joyda sarimsoq va ko'katlar barq urib o'smog'da.

“Paxtakor elita urug'chiligi” fermer xo'jaligi dalasida bo'lgandi va dala chetlaridagi yerlardan samarali foydalanish, fermer va ishchilarga qulaylik yaratish uchun dala uylari qurish zarurligini aytgan edi. O'shanda “Paxtakor elita urug'chiligi” fermer xo'jaligi dala chetiga tut, uzum, poliz va dukkakli mahsulotlar ekilgani, asalari uylari qo'yilganini ko'rgandim. Dala uyi yengil konstruksiyalardan qurilgan, tomida quyosh panellari o'rnatilgani menda ham havas uyg'otdi. Shundan keyin dala uyi atrofini obod qilishga kirishdim. 2000 tup turli rangdagi atirgullar, 80 tup archa olib kelib ekdim, — deya hikoya qiladi Farrux.

Darhaqiqat, qizil, oq atirgullar chamanday gullagan, ifori atrofga taralmog'da. Archalar esa odam bo'yidan baland bo'lib qolibdi, ular tegrasidagi salqinlik Armasoyning jazirama issig'ida odamga xush yoqadi.

Dala uyining atrofi ham yam-yashil, bir tomonda kartoshka gullay boshlagan, 3-4 sotix joyda sarimsoq va ko'katlar barq urib o'smog'da.

Farrux o'tgan yili yana bir xayrli ishga qo'l urdi. Dalasi chekkasida 6 sotix chiqadigan yer qarovsizlikdan qamish bosib yotardi. O'sha joyni tozalab, texnika yordamida 5-6 metr chuqur kovlatdi. Uzunligi 80, eni 6 metrli chuqurni ko'rgan atrofda fermerlar “Farrux bu yerga silos bostirsa kerak”, deydishdi. Ammo “g'alati” yigitning rejasi boshqa edi. U sizot suvni chuqurlikka boshqarib, to'ldirdi. Chuqurlikning bir tomonidan suv chiqib ketadigan joy qilib, zog'ora va oq amur baliqlari chavoqlarini tashladi.

— Bu ishlarning hammasi oilamizga qo'shimcha daromad kirib turishi uchun. Kartoshka va sabzavot, poliz ekinlari sotib olmaymiz, hammasini dala chekkasidagi



yerlarga ekib qo'rganman. Ammo asosiy e'tiborimni tokzorga qaratganman. Armasoyda ham dovrug'i olamni tutgan Bog'don soyaki mayizlari yetishtirib, xorijiy davlatlarga eksportini yo'lga qo'ymoqchiman, — deydi Farrux.

Hozirgi paytda “Xoliq bobo duosi” bog'dorchilik xo'jaligi yerlarida tokning so'g'diyona, husayni, kelinbarmoq, R-1 navlari ishkom usulida parvarish qilinmog'da. Bog'bonlar ta'bir bilan aytganda, qora uzumlarga ola kirib qoldi.

Xalqimizda “Urug'ing bilan emas, hosiling bilan maqtan”, degan naql bor. Shuning uchun Farruxdan qancha hosil olishni mo'ljallayotgani haqida so'radik.

— Bog'bondan yer haqida so'rang, ekin haqida so'rang. Yomg'ir yog'sa, hosilim mo'l bo'ladi, deb quvonadi u. Ammo tokzor

ortiqcha namlikni ham yoqtirmaydi. Qancha hosil olganimni kuzda aytaman, — dedi u kamtarlik bilan.

Ha, quyoshning chiqishi, hatto yangi oynning paydo bo'lishiga qarab hosil cho'g'ini aytib beradigan bor. Biroq ob-havoning keskin o'zgarishi, anomol harorat, kutilmaganda yomg'ir va do'l yog'ib qolishi butun umidlarni so'ndirishi mumkin. Yil qurg'oqchil yoki hosil mo'l bo'ladi, tabiatdan o'rganadi dehqon bashoratni. Lekin orzular qanotida yaxshi niyatlar bilan mehnat qilayotgan minglab dehqonlar, bog'bonlar pok maqsadlari tabiat inijliklarini ham yengib o'tishga qodir.

Asad MUSTAFOYEV,
journalist



Tashabbusning qanoti bor

FARG‘ONA

milliy madaniyatimizning umidli vakillariga beshik bo‘ladi



Keyingi paytlarda yurtdoshlarimiz viloyatlardan sayohat uchun faqat poytaxtga kelayotgani yo‘q. Bola-chaqam chiroyli joylarni ko‘rsin, hayotdan zavq olsin, deydiqanlar, avvalo, o‘zi yashaydigan joylardagi bog‘laru ekoshaharchalarda hordiq chiqaryapti. Xalqaro darajadagi festivallar ham faqat Toshkentda o‘tkazilmayapti. Qator hududlar bunday yirik tadbirlarga mezbonlik qilaypti.

Shu yilning o‘zida Xivada Lazgi, Jizzaxda Xalqaro maqom san‘ati festivali, Qoraqalpog‘istonda iqtidorli yoshlarning “Bo‘zatov Fest” festivallari ko‘tarinki saviyada tashkil etildi. Oldinda Andijonning Xonobod shahri mezbonlik qiladigan “Dunyo sadolari”, Samarqandga yanada fayz ulashuvchi “Sharq taronalari” festivallari turibdi. Bunday tadbirlar mamlakatimiz sayyohlik imkoniyati oshishiga xizmat qiladi.

Shu kunlarda kulolligi ipakchilik, dehqonchilikning hadisini olgan farg‘onaliklar yaqinda ochilgan “Yangi O‘zbekiston” massivi hamda ekoshaharni ko‘rib, hayratlanmoqda. Zero, massiv bo‘ylab yurgan har qanday kishi bunyodkorlik nafaqat ko‘p mablag‘, juda katta kuch, mashaqqatli mehnat evaziga bunyod etilganini his etadi. Ayniqsa, bir yarim gektar maydonni egallagan, 4 ming tomoshabinga mo‘ljallangan, umumi qiyimat 27,8 milliard so‘mlik loyiha asosida qirib bitkazilgan zamonaviy amfiteatr qurilish sohasi vakillarining mahorati tobora oshib borayotganidan dalolat. Shaklan go‘zal, mahobatli bu bino ertamiz egalarining chinakam

ijod maydoniga aylanishi kerakligi mas‘ullarni allaqachon harakatga keltirdi. Davlatimiz rahbarining tashrifi chog‘ida nomlari hurmat bilan tilga olingan buyuk san‘atkorlar, ijodkorlarga munosib avlodlar tarbiyalash, ijodiy parvoz maydoniga qiyoslangan amfiteatrqa jamlash jo‘n ish emas.

Filarmoniyada ishlash istagidagilar safi kengayyapti

Tashrif asnosida davlatimiz rahbari Farg‘onada madaniy tadbirlarni ko‘paytirish masalasiga alohida to‘xtaldi. Bu hududdagi soha vakillari zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston davlat filarmoniyasining Farg‘ona hududiy bo‘linmasi bu borada asosiy kuch bo‘ladi. Endi uning tarkibida Simfonik orkestr hamda Milliy cholg‘u orkestri ham tashkil etiladi. Zero, bugun milliylikni qadrllovchi, ezigulikka xizmat qiluvchi san‘atga barcha imkoniyat eshiklari ochiq. Bunday san‘atni qancha ko‘p targ‘ib

qilsak, shuncha kam, aslida. Shu ma’noda, yangi orkestrlar uchun hududning sayyohlar eng ko‘p keladigan manzillarida haftalik konsertlar o‘tkazish manfaatlari bo‘ladi.

Anchadan buyon simfonik orkestrimiz bo‘linishini, katta-katta asarlar ustida ishlashni orzu qilardik, — deydi O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Farg‘ona hududiy bo‘linmasi rahbari Sherzod Hakimov. — Prezidentimiz shu orzumizga qanot bag‘ishladi. Qolaversa, viloyat hokimligi ham jamoamizga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Moddiy-texnik bazadan tortib, liboslargacha zarur sharoit yaratib berilyapti. O‘zimizga alohida bino berilgani bois, amin-erkin ijod qilypmiz. O‘tgan yili 20 dan ortiq konsert dasturi, qator lektoriy konsert namoyishlari, 20 dan ortiq chekka qishloqda madaniy tadbirlar o‘tkazdik.



Ekoshaharda musiqa maktabi ochilsa...

2022-yilda hududiy filarmoniyalar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan respublika ko‘rik-tanlovda birinchi o‘rinni, o‘tgan yili Jizzaxda ikkinchi o‘rinni egallaganimiz, ko‘plab e’tiroflar eshitayotganimiz yaxshi muhitida ishlayotganimiz samarasi, albatta. Davlatimiz rahbarining haftalik konsertlar o‘tkazish haqidagi taklifini esa 60 dan ziyod xodimimiz bilan iliq qarshiladik. Zero, asl maqsadimiz ham shu: milliy musiqa san‘atimizni dunyo tanisin. Milliy boyligimiz bo‘lgan kuy, qo‘shiq va raqslarni kelgusi avlodga yetkazish bizga g‘urur bag‘ishlaydi. Farg‘onaga kelayotgan sayyohlar oqimi yildan yilga ko‘paymoqda. Shuningdek, xorij musiqa yo‘nalishlarida ham ijod qilib, turli hududlardan keladigan sayyohlar ko‘nglini olishga tayyor turishimiz kerakligini tushunib yetdik. Har bir musiqa yo‘nalishida chet tilida ijod qiladigan xodimlarimiz bor. Nasib etsa, qo‘shni va uzqoq chet davlatlarga ham gastrollar uyushtirib, konsertlar berish niyatidamiz. Ayni paytda viloyatdagi yangi iqtidor egalarini kashf etish hamda filarmoniyaga jalb etish ishlarni boshlab yubordik. Ko‘plab san‘atkorlar o‘zi jamoamizga kelib, biz bilan hamkorlikda ishlash istagini bildirib boshladi. Kerak bo‘lsa, tanlov e‘lon qilib, ularni saralab olish, ish bilan ta‘minlashga harakat qilamiz. Simfonik orkestr, milliy cholg‘ular orkestrining tashkil etilishi filarmoniyada ishlash istagidagilar uchun imkoniyat bergani bilan ham ezgu ish bo‘ladi.

O‘zbekiston davlat filarmoniyasi Farg‘ona hududiy bo‘linmasiga keladigan yosh avlod vakillari endi har qachongidan samarali ijod qiladi. Chunki “Yangi O‘zbekiston bog‘i”, so‘lim xiyobonlar, sun‘iy ko‘l, zamonaviy amfiteatr bo‘lgan hududda yaqin kelajakda butun mamlakatga namuna bo‘lgulik zamonaviy bolalar musiqa va san‘at maktabi ham qad rostlasa, ajab emas. Prezidentimiz ekoshaharda musiqa maktabini ochish bo‘yicha taklif kiritishga ko‘rsatma berdi.

Ayni o‘sha kunlari Toshkent shahridagi 1-Bolalar musiqa va san‘at maktabi o‘quvchisi Yasmina Husniddinova Belarusda o‘tkazilgan xalqaro festivalda mamlakat rahbari qo‘lidan Gran-prini qabul qilib olgani mazkur taklifning ahamiyati nechog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Ustozlari Madina Abdubekovadan estrada vokal va xoreografiya yo‘nalishida saboq olayotgan Yasmina qator xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, Gran-pri, oltin Gran-pri va super Gran-pri sovrindori bo‘lgan. Joriy yilda esa Qoraqalpog‘istonning Bo‘zatov tumanida o‘tkazilgan “Yoshlar festivali — 2024” respublika tanlovda estrada xonandaligi bo‘yicha birinchi darajali diplom va pul mukofotini qo‘lga kiritdi.

— Bu mamlakatimizda ta‘lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e’tiborning yana bir yorqin natijasi, to‘li mevasidir. Yurtimizda Yasmina kabi iqtidorlar juda ko‘p. O‘ylaymizki, ular ham yaxshi

ilm olib, ustozlar o‘g‘itiga amal qilib, xalqaro miqyosdagi nufuzli tanlovlarda vatanimiz nomini ulug‘lashga munosib hissa qo‘shadi, — deydi musiqa maktabi direktori Fazliddin Islomov.

Madaniyat vazirligi ma‘lumotiga ko‘ra, ayni paytda mamlakatimizdagi 325 ta bolalar musiqa va san‘at maktabida 85 mingdan ziyod o‘g‘il-qiz estrada va an‘anaviy cholg‘u, xalq cholg‘ulari, torli cholg‘ular, damli va zarbli cholg‘ular ijrochiligi kabi 14 yo‘nalish bo‘yicha tahsil olmoqda. Har yili o‘quvchilarning 500 dan ortig‘i mamlakat, 100 ga yaqini turli darajadagi xalqaro tanlovlarda ishtirok etayotgani mazkur maktablar faoliyati samarasidir.

Biroq bu ko‘rsatkich foiz hisobida tahlil qilinsa, juda kam ekan ko‘rinadi. Zero, 325 ta bolalar musiqa va san‘at maktabi atigi 1,3 foiz o‘quvchini qamrab olgan. Vaholanki, soha fidoyilari qayg‘urayotganidek, ayrim o‘quv muassasalarida o‘tilayotgan musiqa darslari muallim faqat gapiradigan, o‘quvchilar esa eshitadigan zerikarli mashg‘ulotga aylanib qolgan. Shu ma’noda, musiqa san‘atiga qiziqqan, professional bilim olishni istagan yig‘it-qizlarni haqiqiy ta‘limga yo‘naltirish kerak. Musiqa san‘atini anglay bilish, ilmiy asoslarini egallash insonda sog‘lom dunyoqarash shakllanishi, tafakkur va salohiyat yanada boyishida muhim o‘rin tutadi.

— 2015-yildan xalqaro tanlovlarga chiqishga ruxsat berildi, — deydi Andijon viloyati madaniyat boshqarmasi bosh mutaxassisi Ismoil Davlatov. — O‘sha yili Paxtaobod tumanidagi bolalar musiqa va san‘at maktablaridan axbor rubob yo‘nalishi bo‘yicha Sankt-Peterburgga borib, 1-o‘rinni oldik. Shu yilning o‘zida yana bir bor Sankt-Peterburg va Italiyada o‘tkazilgan xalqaro tanlovlarda ishtirok etdik. Hozir esa har yili 100 dan ziyod bola chet eldagi tanlovlarda qatnashib kelaypti. Buning uchun sharoit yetarli. Avval bitta maktabda 1-2 ta pianino bo‘lgan bo‘lsa, hozir 10 dan ziyod. Royal va boshqa qimmatbaho cholg‘u asboblari davlat hisbidan olib kelinaypti. Maktablar ham ko‘paydi. O‘qituvchilar bor mehniri berib ishlaydigan sharoit yaratildi. Har bir murabbiy alohida xonalarda amin-erkin dars beradi, o‘z ustida ishlaydi. Prezidentimizning tegishli qarori asosida o‘quvchilar yuqori natijalarga erishayotgan murabbiylar 40 foizgacha ustama olaypti.

Uzoq yillar Andijon viloyati Paxtaobod tumanidagi 25-bolalar musiqa va san‘at maktabiga direktorlik qilgan Ismoil Davlatov 2008-yilgacha bolalar musiqa va san‘at maktablariga e’tibor juda sust bo‘lganini eslaydi. Aytishicha, 10-15 yil oldin 2,5-3 ming bola musiqiy ta‘lim olgan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 8 mingga yetgan. O‘sha kezlari atigi 6-7 yo‘nalish bo‘lgan bo‘lsa, hozir 10 dan ziyod, ba’zi maktablarda 15 ga yaqin.

Ha, qiziqishi, iste’dodi bor, ota-onasi qo‘llab-quvvatlaydigan o‘g‘il-qizlarning musiqa san‘ati bilan shug‘ullanib, yuqori natijalarga erishishi uchun bugun zarur choralar ko‘rilyapti. Farg‘onadagi tashabbuslar qanot yoyib, boshqa hududlardagi iste’dodlilar uchun ham yangi-yangi imkoniyatlar eshigi ochilsa, ajab emas.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Achchiq, ammo ochiq gaplar

O‘ZINGDAN CHIQQAN BALOGA...



Nosirjon ERKABOYEV,
Favqulodda vaziyatlar vaziri
maslahatchisi

Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur” deb yozgan edi. Insonning tiliga bo‘lgan munosabati uning yurtiga, xalqiga va millatiga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi. Tiliga muhabbati bo‘lmagan odam yurtiga, xalqiga ham muhabbatli bo‘lmaydi.



qilinib, ular davlat tilida ish yuritilishini nazorat qilmoqda. Departamentning sa‘y-harakatlari bilan tilimizning rivoji yo‘lida juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Xo‘sh, unda nima uchun ona tilimizning mavqe‘i kundan kunga yaxshilanish o‘rniga yomonlashyapti? Qonunlarimiz nimaga ishlamayapti? Ayniqsa, poytaxt ko‘chalarida o‘zimizni xuddi chet elda yurganday his qilamiz. Katta-katta, muhtasham binolar tepasiga o‘zga tillarda nimalardir bitilgan. Axir har bir bino peshtoqiga xoh davlat, xoh nodavlat yoki xususiy tashkilot bo‘lsin, avvalo, davlat tilida, keyin zarur bo‘lsa kichikroq qilib boshqa tillarda yozish kerak emasmi?

Ko‘cha yozuvlari, reklama va e‘lonlarning aksariyati xorijiy tillarda yozilganiga guvoh bo‘lamiz. Faqat davlat idoralarga kiraverishdagi peshlavhalar, turli shiorlar davlat tilida yozilgan.

Masalan, Oloy bozoridan Amir Temur ko‘chasi bo‘ylab Bodomzor tomonga yursangiz, ko‘cha yuzidagi yozuvlardan yoqa ushlaysiz. Birorta o‘zbek tilidagi yozuvga ko‘zingiz tushmaydi. Faqatgina Yunusobod tumani hokimligi binosiga o‘zbek tilida yozilgan. U ham to‘g‘ri yozilmagan, ya‘ni “hokimiyati” deyilgan. Tuman mas‘ullari ushbu ko‘chadagi aholiga xizmat ko‘rsatuvchi korxona va do‘konlar peshtoqidagi yozuvlarning davlat tilida bo‘lishini nazorat qilishi kerak emasmi? Qolaversa, o‘sha xususiy korxona egalarining aksariyati o‘zimizning millatga mansub. Ularda milliy g‘urur, o‘z ona tiliga hurmat yo‘qmi?

Poytaxtimizning boshqa tumanlari va ko‘chalaridagi ahvolni ham bundan yaxshi, deb bo‘lmaydi. Jumladan, Chilonzor tumanida ko‘chalarni aylansangiz, yozuvlar, do‘kon va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini nomlarini ko‘rib, ko‘nglingiz xira bo‘lishi tabiiy. Demak, bu borada davlatni, hukumatni ayblashga haqqimiz yo‘q. Hamma gap o‘zimizda, ona tilimizga nisbatan befarqimiz. Vatanparvarlik, millatparvarlik yetishmaydi. Talab qilishni bilmaymiz.

Ko‘chada yurganimizda qorako‘z va qoraqo‘sh millatdoshlarimizning ajnabiy tillarni aralashtirib gapirayotganiga e’tibor bermaymiz. “Hoy, tilimiz ustidan kulma, shunday boy, go‘zal tilimizni oyoqosti qilma”, deyishga jur‘atimiz ham, hafsalamiz ham yetmaydi. Tilimizga nisbatan shu qadar befarqimizki, o‘zgina tilimizdagi kamchiliklar yoki tilga bo‘lgan munosabat haqida gapirgan odamni og‘ziga uruvchilar hamma joyda topiladi. Ular uchun til masalasi mayda gap, unchalik muhim emas. Shuning uchun ham tilimiz haqida jon kuydirayotgan, kamchiliklarni ro‘yirost aytayotgan ayrim fidoyi olimlarimizni o‘zimiznikilar ijtimoiy tarmoqlarda toshbo‘ron qilmoqda.

Masalan, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev poytaxtimizda o‘zbek maktablarining keskin kamayib ketgani, tilimizga bo‘lgan va bo‘layotgan befarqlikni aytgani uchun unga rahmat aytish o‘rniga qancha malomat qildik. Olimning ona tilimiz haqida kuyib-pishib gapirayotgani, himoya qilayotgani bizni xursand



qilsa, ayrim millatdoshlarimizning “Buncha vahima qildilaring, boshqa ishlaring yo‘qmi, deb bo‘lmaydi. Axir domla til bilishga qarshi emas, “Qancha ko‘p til bilsa shuncha yaxshi, ammo farzandlarimizning savodi o‘z ona tilida chiqsin, ildizidan uzqoq bo‘lmasin, bolalarimiz o‘z tilini, yurtini sevadigan vatanparvar insonlar bo‘lsin” degandi, xolos.

Professorning fikrlarini ko‘pchilik anglamadi ham. Bu juda katta muammo, tanamizdagi yomon yara. Bu yara kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q, ancha yillar oldin gazak olgan. Bu mavzu O‘zbekiston xalq shiori To‘ra Sulaymonni ancha yillar ilgari bezovta qilgan. O‘shanda u matbuotda ikkita maqola e‘lon qilgan edi. Agar adashmasam, birinchisi “O‘zbek tili — o‘zligimiz, o‘zbekligimiz, o‘ziga bekligimizning bosh belgisi”, ikkinchisi esa “Tilimizni hakka cho‘qiganmi?” deb nomlangan edi. Bunga ham ancha yillar bo‘lib qoldi. Afsuski, sevimli shoirimizni qiyinagan muammo, tilga bo‘lgan e’tiborsizlik, befarqlik hali-hanuz davom etmoqda.

Bir-ikki yil oldin ish bilan poytaxtimizdagi bir banka bordini. Bank xodimi ariza yozish uchun qo‘limga namusam qog‘ozini tutqadiz. Qarasam, ruscha ekan. “Menga o‘zbekchasini bering”, dedim. “Ruscha, inglizcha to‘ldirolmaysizmi? Yo‘q, menga o‘zbekchasini bering, dedim. Shundan keyin bank xodimi og‘ringan holda, norozi

bo‘lib kompyuterdan menga o‘zbekchasini chiqarib berdi. Bu orada bank mijozlaridan bir nechtasi “To‘ldirib beravermaysizmi, ularni ovora qilmay...”, deya menga dakk berdi. Ular qo‘llab-quvvatlash, davlat tili to‘g‘risidagi qonunga amal qilinishi lozimligini utqirish o‘rniga menga e’tiroz bildirganidan ko‘nglim ranjidi. Ha, xalqimiz bejiz “O‘zingdan chiqqan baloga — qayga borasan degan” yoki “O‘zingniki o‘zagingni kesadi” demagan ekan.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillarda yurtimizda yashovchi boshqa millat vakillari o‘zbek tilini o‘rganishga kirishgan edi. Ko‘p joylarda o‘zbek tilini o‘qitadigan kurslar ham ochilganidan xabarimiz bor. Yillar o‘tib, bunga ehtiyoj yo‘qligini bilgan boshqa millat vakillari davlat tilini bilish shart emasligini tushunib qoldi. Chunki qayerga borsa, davlatni tilsiz ham ishlari osonroq bitayotgan edi-da. Shunday qilib, ularga davlat tilini o‘rganishga hojat qolmadi.

Yuqorida ta‘kidlaganimdek, hammasiga o‘zimiz aybdormiz. Hozirgi holat sobiq sho‘rolar tuzumi davridan ham yomon ahvolda kelib qolganini tan olmaslikning iloji yo‘q. Farzandlarini chet tillarda tarbiyalovchi bog‘chalar, maktablarga berish uchun qanchalik sa‘y-harakat qilayotganlar, hatto uyda ham ona tili qolib boshqa tilda so‘zlashayotganlar tobora ko‘payib borayotgani ahvolning o‘ta jiddiy ekanini ko‘rsatib turibdi.

Bugun ko‘chaga chiqsangiz har qadamda bolalarimizni maktabga tayyorlaydigan

“Pochemuchka”larga ko‘zimiz tushadi. Ajablanarlisi shundaki, aholimizning 90 foizi o‘zbek millatini tashkil qiladigan yurtimizda birorta o‘zbek maktablariga tayyorlaydigan kursni ko‘rmaymiz. Hammasi xorijiy tildagi maktablarga tayyorlaydigan kurslar. O‘sha kurslarga borayotgan bolalarining aksariyati o‘zimizning qora ko‘z, qora qoshlarimiz. Albatta, talab bo‘lmasa, taklif bo‘lmaydi. Bu ham bizning tilimizga bo‘lgan munosabatimizni ko‘rsatuvchi yana bir dalil.

O‘tgan asr boshida yashagan ma‘rifatparvar, jaded bobolarimiz yoshlarimizning til bilishiga katta e’tibor qaratgan: “Kamida besh tilni biluv kerak, ammo savodlarini o‘z ona tilida chiqarishlari lozim”. Chunki boshqa tilda ta‘lim olganlar o‘sha tilda fikrlaydi. Inson qaysi tilda fikrlasa, o‘sha millat manfaati uchun xizmat qiladi.

Shu o‘rinda bir rivoyat yodimga tushdi. O‘rmonga bir guruh odamlar borib daraxtlarni kesa boshladi. Shunda daraxtlar yig‘ilib, kekka qayrag‘ochning oldiga borib, undan maslahat so‘rabdi. Kekka qayrag‘och “Odamlar daraxtlarni nima bilan kesaypti?” deb so‘rabdi. “Bolta bilan kesaypti”, deyishibdi. “Bolta qanaqa narsa, nimadan yasalgan?” deb so‘rabdi yana kekka qayrag‘och. “Bolta temirdan yasalgan, ammo sopi o‘zimizdan, daraxtdan”, deb javob beribdi. Kekka qayrag‘och “Sopi o‘zimizdan bo‘lsa, unda qiyin ekan”, deb javob bergan ekan.

Qissadan hissa shuki, bizda ham sopini o‘zimizdan chiqarishga harakat qilishyapti. Shu kunlarda ziyolilarimiz, shoir va yozuvchilarimiz ham farzandlarini boshqa tildagi maktablarga bergan va bermoqda. Shu ketishda davom etsak keyin kech bo‘ladi. Bu muammo bugun har birimizni bezovta qilishi kerak.

To‘g‘ri, har yili 21-oktabr sanasini tilimizga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida nishonlaymiz. Teleradio kanallarda ko‘rsatuv va eshittirishlar efriga beriladi. Gazeta va jurnallarda maqolalar bosiladi. Ijtimoiy tarmoqlar til fidoyilarining fikrlari bilan qaynaydi. Ularda davlat tilida ish yuritish borasida erishilgan yutuqlar, yig‘i nomlari va peshlavhalarining davlat tilida yozilganiga haqida ko‘p va xo‘p gapiriladi. Xullas, “Tilimiz unday darajada rivojlandi, bunday ishlar qilindi”, deb ko‘kragiga uruvchilar ko‘payadi. Kamchiliklarni esa bayram kunlari aytish mumkin emas. Har holda shunday deyishga o‘rganib qolganmiz. Til bayramini qarsakbozlik, ura-urachilik bilan o‘tkazib, ertasiyotgini til haqida gapirishni, o‘ylashni to‘xtatayotiz, keyingi 21-oktabrgacha.

Xulosa o‘rnida aytaymiz shuki, tilimizga muhabbatli bo‘laylik, uni asrab-avaylaylik. Zero, hammasi o‘zimizga bog‘liq. Dunyoda millatimizni bor qiladigan ham yo‘q qiladigan ham ona tilimiz.

ULAR FAQAT BIRINCHI BO'LISHGA INTILADI

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yanqi O‘zbekiston” muxbiri

SEN KETMAGIL, OQIBAT

O'zA yakuni — 20:55 Topshirildi — 22:55